

BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARINING MA`NAVIY AQLIY XUSUSUYATLARI PEDAGOGIK MAZMUNI

Esemuratova Turganbike Aytmuratovna
Matmuratova Gulistan Kamalatdinovna

*Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika institute, Boshlang`ich ta`lim fakulteti?
Umumiy pedagogia va psixologiya kafedrasida katta o`qituvchilari. Nukus shahri, O`zbekiston
Respublikasi. g.matmuratova@ndpi.uz*

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ДУХОВНО-ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ

Есемуратова Турганбике Айтмуратовна
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна

*Старший преподаватели кафедры «Общей педагогики и психологии» Нукусский
государственный педагогический институт имени Ажинияза.
g.matmuratova@ndpi.uz*

PEDAGOGICAL CONTENT OF THE SPIRITUAL AND INTELLECTUAL CHARACTERISTICS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Esemuratova Turganbike Aytmuratovna
Matmuratova Gulistan Kamalatdinovna

*Senior teachers of the Department of General Pedagogy and Psychology, Faculty of
Primary Education. Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz. The Republic of
Uzbekistan. Nukus city. g.matmuratova@ndpi.uz*

Annotaciya: *Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarining ma`naviy aqliy
xususiyatlarini aniqlashda boshlang`ich sinf o`qituvchisi vazifalari, ma`naviy intellektual
xususiyatlarini shakllantirishning samarali usullari so`z etiladi*

Tayanch so`zlar: *Aql, odob, bilim, tarbiya, intellectual xususiyatlar.*

Аннотация: *В статье рассматриваются результаты выявления
интеллектуальной недостаточности учащихся начальной школы, учителей
начальной школы, преподавателей и учителей.*

Ключевые слова: *Интеллект, мораль, знания, воспитание, этика,
интеллектуальные различия.*

Abstract: *The article examines the results of identifying intellectual disabilities in
primary school students, primary school teachers, lecturers and teachers.*

Key words: *Intelligence, morality, knowledge, education, ethics, intellectual
differences.*

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim sohasi oldida yosh avlodni hozirgi zamon talablariga mos bo'lgan erkin fikrlash va intellektual nuqtai nazarga ega komil insonni tarbiyalash vazifalari tur. Ushbu vazifalarni bajarishda boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan kasbiga pidoiylik, nazariy bilim, tadqiqotchilik xususiyatlar, o'z ishiga javobgarchilik munosabatda bo'lish talab etiladi.

Eng avvalo, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olishga bo'lgan qiziqishini, iste'dodini, qobiliyatini orttirish bilan birga ularning aqliy tuyg'ularini ham rivojlantirish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy xususiyatlarini rivojlantirishda o'quvchi va o'qituvchi birgalikda harakat qilishi kerak

Aql, odob, bilim insoniylik jamiyatning har bir davrida o'ziga xos hayotiy tajribalarga, yoshi kattalarning maslahatlariga tayanib yuritildi. Natijada yoshi katta bilan yoshi kichik, tajribali va bilimli odamlar orasida odob-ahloqiylik munosabatlarning o'z-aro aloqadarligi paydo bo'la boshladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Davlatimizning rivojlanishi va ravnaqi uchun xizmat qiladigan, aqliy rivojlangan, istedadli yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalarining biri bo'lmoqda. Demak, talim jarayonini mukammallashtirmay jamiyat talab etayotgan yoshlarni shakllantirib bo'lmaydi. Har qanday insonning o'sishi, rivojlanishi va shakllanish davrlari ta'lim-tarbiyasiz amalga oshmaydi. Aqliy rivojlanish va ta'lim-tarbiya, bir-biriga chambarchas bog'liq faoliyatdir.

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intilish va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bosh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1]. Prezidentimiz aytganlaridek qadimdan bizning yurtimizdan buyuk siymolarning yetishib chiqqanligiga e'tibor bersak, bobokalonlarimiz zehnli, qobiliyatli bolalarni alohida ajratib olayotganligi ma'lum.

Aql insonlarning piri komili, murshidi, yagonasidir. Rux ishlovchi, aql boshlovchidir. Inson aqli ila din va e'tiqodni mahkam qiladi, shariat hukmlariga buysunadi. Insonlarning dusti uning aqlidir, dushmani esa uning nodonligidir. Inson aqli tufayli yaxshilik bilan yomonlikni ajratadi. Olimlarning fikricha, aql ikki turda bo'ladi. Insonni hayvondan ajratib turadigan tug'ma aqli tabiiy va kasbiy.

Inson tabiatdagi aqlni o'tkirlash va o'stirish faoliyati bu kasbiydir. Bu esa aqlni ishlatish, tajriba va ilm olish bilan hosil bo'ladi. U aqlni rivojlantirish uchun ham har bir kishi hayotdan tajriba orttirisi va ilm-ma'rifat o'rganishi zarur, har kimki, aqlga oshno bo'lsa, jamiki ayblardan poklanadi, haqiqatni, anglab, kamolotga etadi. [2].

Komil inson deganda, biz avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Inson uchun aql, eshik ochuvchi, axloqiy yo'l ko'rsatuvchidir. Etuk axloq va odob insonning ziynati, donolarning fazilatidir. Aqlli kishi axloqli bo'lsagina, xalqiga, mamlakatiga yoru do'stlariga naf keltiradi.

Allomalardan biri “Agar aqlingni quli nafsingni jilovini ushlasa, seni yomon yo`llarga kirmoqdan saqlar, har narsa ko`p bo`lsa, bahosi arzon bulur, aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko`paysa, shuncha qimmat baho bulur”, [3] deganlaridek aql-insonning epchillik, bunyodkorlik, insonparvarlik sifatleri majmuasidan iboratdir.

Asrlar mobaynida bobokalonlarimiz yoritgan tartib va tarbiya, odob-ahloq haqidagi urf-odatlar Markaziy Osiyo xalqlarining qadimdan kelayotgan milliy tarixiy udumlari hisoblanadi. Bobokalonlarimizning ugut-nasihatlari bilan ta`lim-tarbiyasi hayotdan, turmush tajribalaridan orzu-umidlaridan tarkib topgan bo`lib har bir avlodning kelajagiga munasib darajada tarbiyaviy ta`sir ko`rsatmoqda. O`quvchilarning ta`limida hozirgi zamondoshlarimiz Sharqning buyuk allomalari yaratgan ta`lim-tarbiya merosini o`rganib, aqliy, ma`naviy va intellektual dunyosini boyitadilar. Chunki allomalarning so`zlari bilan nasihatlaridan ta`lim-tarbiya haqidagi donolik fikrlarni o`qiymiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang`ich sinf o`quvchilari o`z rivojlanishining boshlang`ich bosqichida turibdi. Ularning aqliy, hissiy va ijtimoiy xususiyatlari o`zgarib borayotgan va bir-biriga ta`sir ko`rsatadigan jarayonlardir. Bugungi kunda ota-bobolarimizning tarbiya sohasida yaratgan ta`lim-tarbiyaviy meroslarini, milliy udumlarga yarashgan hayotiy ko`rinishlarni qayta tiklash va millatining meroslarini chuqur o`rganish aql tarbiyasining eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Xalqning milliyligini maktab o`quvchilariga o`rgatish orqali ularda insonparvarlik, tarbiya va bilimiga yarasha o`z xalqi va millatining boy meroslarini chuqur egallash imkoniyatini yaratgan bo`lamiz.

Ta`lim jarayonida boshlang`ich sinf o`quvchilarning aqliy jarayonlari bilish uchun bo`lgan qiziqishlar bilan faollashib qiziqish o`quvchilarning aqliy faoliyati asosida paydo bo`ladi va uning shaxsiy individual sifatida o`quvchilarning ana shu aqliy faoliyatini yanada rivojlantiradi.

O`quvchilarning qiziqishlari mazmuni, barqarorligi jihatdan xilma -xildir. Keng mazmunli va barqaror qiziqishlar o`quvchilarning yoshligidan paydo bo`la boshlaydi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining ma`naviy aqliy xususiyatlarini rivojlantirishda buyruq, jazolash kabi usullardan foydalanmaslik lozim, ammo alohida iste`dodga ega o`quvchilarda zehn, aqliy tuyg`u qobiliyatni bilganda ularga rag`batlantirish usullaridan foydalanish zarur.

Bolalarning fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va ijtimoiy ko`nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ta`lim tarbiya jarayonida aqliy tarbiyani amalga oshirish uchun darsda o`quvchilarning faol ishtirokini ta`minlash, muhokama va tajribalar orqali bilish jarayonini quvvatlash, mantiqiy o`yinlar bolalar fikrlashini rivojlantiradi. Oddiy savollar bilan ishlash, ularni hal qilishda o`quvchilarga yordam berish. o`quvchilarni faol ishtirok etishga undash, san`at, musiqa, va boshqa ijodiy faoliyatlar orqali bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish lozim. Bolalar fantaziyasi orqali mavjud g`oyalarni yangi shakllarga keltirish ularning ijodkorligini yanada oshiradi. Shuningdek, jamoa bilan o`z-aro muloqot qilishni o`rgatish, bolalarga o`z his-tuyg`ularini va fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatlarini yaratish ularning o`ziga bo`lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Boshlang'ich sinflarda aqliy tarbiya bolalarning intellektual, ijtimoiy va emosional rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, bu jarayon, bolalarga kelajakda o'z bilim va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli qo'llash uchun zarur asoslarni tayyorlaydi.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual xususiyatlarini aniqlashda boshlang'ich sinf o'qituvchisi vazifasi-o'quv dasturiga mos o'quv mashg'ulotlarni rejalashtirish, o'zlashtirishini nazorat qilish va o'quvchilarning darsdagi faoliyatini tartibga solishdan iborat. Mana shu yo'l bilan boshlang'ich sinf o'qituvchisi sinf faoliyatiga rahbarlik qiladi.

O'quvchi ma'naviy intellektual xususiyatlarining shakllanishi kuyidagi o'qitish va o'rgatishning samarali usullari bilan bog'liq deb hisoblaymiz.

1. Boshlang'ish sinf o'quvchilariga ijtimoiy ishlarni taqsimlaganda ularning xulq-atvor qobiliyati, ushbu vazifani bajara olish yoki bajara olmaslik xususiyatlarini e'tiborga olinishi kerak.

2. Ayrim fanlarga iste'dodli o'quvchilarni shu fanga qiziqishlarini orttirish. Ushbu fanni chuqur egallashi uchun yul-yuriq berish. O'quvchi boshlang'ich sinfdan boshlab maqolalar, qo'shiqlar yozishga qobiliyati bo'lsa, ko'proq adabiy kitoblar o'qishga yunalish berishi, sinfdagi yoki maktabdagi devori gazetalarga a'zo qilish to'g'ri bo'ladi.

3. Sportga qiziqishi bo'lgan bolalar, nazariy darslar, o'quv fanlariga qiziqmaydigan o'quvchilarni boshlang'ich sinfdan boshlab sport to'garaklariga a'zolikka bekitish, vaqtida to'g'ri maslahat berish ularning o'z sohasining etuk mutaxassisi bo'lishiga sababchi bo'ladi. [4].

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining boshlang'ich sinf jamoasiga o'z vaqtida to'g'ri rahbarlik qilishi o'quvchini shaxs sifatida shakllantirib boradi, o'qituvchiga esa o'z navbatida bir qancha vazifalarni yuklaydi.

O'quvchilarning maktab ta'limini dastlabki yillaridagi qiziqishlar, xususan bilishga bo'lgan qiziqishlar, tevarak atrofdagi olamni bilishga bolgan qiziqish ko'proq intellektual qiziquvchanlikni sezilarli ravishda rivojlantiradi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf ta'limi o'quvchilarning aqliy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bilim berish jarayonida o'quvchining materiallarni, bilimni to'g'ri o'zlashtirishi, sinfdan turli xil ijtimoiy ishlarni qobiliyatiga qarab taqsimlash, boshlang'ich sinf o'quvchilariga mustaqil topshiriqlar berib ularning aqliy xususiyatlarini aniqlash mumkin.

O'quvchilarning intellektual qobiliyatini aniqlashda har tomonlama ta'sir etishning mumkin bo'lgan usuli va vositalarini qo'llana bilish, har tomonlama rivojlangan odob-ahloqli, komil inson tarbiyasida ham to'g'ri yo'l tutadi deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR:

1. M.Sh.Mirziyoev. Erkin va farovon demokratiik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" T.2016. b-16

2. O.Musurmanova. «Ўқитувчиларнинг маънавий маданиятини шакллантириш» Toshkent-1993

3. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. 2-qism / Darslik. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

4. N.Seydaxmetov., O.Ochilov. «Таълим тарбияни такомиллаштириш» Ma`rifat gazetasi, 1999yil 27-oktyabr